

XUSUSIY MULK HUQUQI DAXLSIZLIGI

*Toshkent davlat yuridik texnikumi o`quvchisi
Tashpolatov Baxtiyor Quدراتillayevich*

Annotatsiya: maqolada xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarini himoya qilishni ta'minlash chora-tadbirlari, huquqiy asoslar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: mulk, xususiy mulk, mulk daxlsizligi, mulkiy munosabatlar.

O'zbekistonda har qanday shaxsga o'zi qonuniy yo'l bilan sotib olgan mol-mulkning daxlsizligiga shubhalanmaslik imkonini beradigan huquqiy kafolatlarning ishonchli tizimi yaratildi. Bu avvalo bosh qomusimizda uning asosida esa fuqorolik kodeksi bilan mustahkamlanib qo'yildi.

Konstitutsiyaning 65-moddasi «Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas»¹, deb belgilagan holda, bugungi kunda xususiy mulkchilikning o'rni va roli mustahkamlandi.

Mulk huquqining vujudga kelish asoslari quyidagilardan iborat: mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, hamda mulkdor ixtiyoridagi mol-mulkni ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish; davlat mol-mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa asoslar asosida vujudga keladi.

2022-yil 24-avgustda qabul qilingan 198-sonli Prezidentimiz farmoniga binoan xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi, mulkiy munosabatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to'liq joriy etishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi tartiblar, talablar va cheklovlar 2022-yil 1-sentabrdan boshlab bekor qilinishi belgilandi.

- yer uchastkalariga bo'lgan huquqning vujudga kelishi uchun asos bo'lgan hujjatlarni, shu jumladan Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarini ularning o'zi yoki yuqori turuvchi organ va mansabdor shaxslar tomonidan, xususan prokuror protesti asosida bekor qilish yo'li bilan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tugatish

- yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechilganda unga bo'lgan huquqning bekor qilinishini Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan rasmiylashtirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil.

- turar joyga nisbatan mulkiy huquqlarga yoki turar joy mulkdori bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lmagan shaxslarni ushbu turar joydan doimiy ro‘yxatdan chiqarish uchun ularning roziligini olish kabi tartiblar bekor qilindi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mulkdorlarning mulk huquqi daxlsizligini ta‘minlashdir.

Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Qhu bilan birga yuqoridagi farmanga binoan mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish kabi ishlarni tizimli tartibga solish maqsadida **“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasini adliya vazirligi rahbarligida ishlab chiqish topshirildi. Bu bilan yurtboshimiz tomonida mulkdorlar huquqlarining muxofazalanishi yanada mustahkamlandi.

Ma‘lumki xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta‘minlash va uning ko‘paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi. Mol-mulkdan xo‘jalik usulida va o‘zgacha usulda foydalanish natijalari, shu jumladan mahsulot, hosil va boshqa daromadlar mulkdorga tegishli bo‘ladi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish Fuqorolik kodeksiga binoan quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: xususiy mulk huquqini tan olish; xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish; bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash; davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish; xususiy mulk huquqini mulkdorning o‘zi himoya qilishi; burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish; zararning o‘rnini qoplash; neustoyka undirish; ma‘naviy ziyonni qoplash; xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonun hujjatlari barqarorligini ta‘minlash; davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid bo‘lgan hujjatining sud tomonidan qo‘llanilmasligi; mol-mulkning ayrim turlariga bo‘lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o‘zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish².

² Fuqorolik kodeksi. *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

“Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4848-son qarori (2016-yil); “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida” gi PF-5780-son Farmon (2019-yil).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.08.2022 yildagi PF-198-son farmoni

